



Maktabgacha talim yoshdagi bolalarni o'zbek xalq ertaklari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati

To'lanova Hilolaxon Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11260853>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2024
Accepted: 20th May 2024
Published: 23rd May 2024

KEYWORDS

folklor, kognitiv rivojlanish, lingvistik o'zlashtirish, ijtimoiy-emotsional ta'lim, o'quv dasturlar

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarini maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda integratsiyalashning pedagogik ahamiyati o'rganiladi

Kirish.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida er bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi, deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.¹

Xalq og'zaki ijodiyotining namunalari bilan tanishar ekanimiz, xalqda voqealarni oldindan ko'ra biluvchi ajoyib qobiliyat va iste'dod bor ekanligini, u hech qachon orzu umidsiz yashamaganligini, har doim kelajak tomon intilganligini anglab olamiz. Zero, xalq og'zaki ijodi bola qalbida ezgulikhissiyotini uyg'otib, uning hulqini ijobiy tomonga yo'naltiradi.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy – nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalashda xalq pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyati katta. Jumladan, xalq pedagogikasi xalq ijodkorligining tarkibiy qismi bo'lib, har bir xalqning o'ziga xos madaniyatini, urf-odatlarini ifoda etadi. Xalq pedagogikasi ajdodlar merosining asosan og'zaki tarzda bildirgan pand-nasihatlari, o'g'itlari orqali yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vositasidir.

Xalq pedagogikasi o'z manbalariga ega bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an'analar, diniy ta'limotlar, xalq o'yinlari, o'yinchoqlar, milliy musiqa, qo'shiqchilik, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, tasviriy san'at, me'morchilik, raqs san'ati kabilardan iborat.

Xalqimizning og'zaki ijod namunalari, Sharq mutafakkirlarining boy merosi, xalqning etnik tarixi, madaniy va maishiy turmush tarzi, mehnat qadriyatlarini, ularning ijtimoiy va oilaviy turmushida muhim o'rin tutadi. Sog'lom turmush tarzi xalqning urf-odatlarini, an'analari, milliy qadriyatlarini negizida shakllanadi. Shu bois, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda xalq pedagogikasining o'rni va roli beqiyos. Xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar O'rta Osiyo xalqlarining milliy va madaniy boyligi ekanligini unutmagan holda yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda, yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ulardan o'rinli foydalana olish lozim.

Xalq pedagogikasining asosini xalq og'zaki ijodi tashkil qiladi. Xalq og'zaki ijodining doston, ertak, rivoyat maqol, topishmoq, tez aytish, qo'shiq, marosim folklori, bolalar folklori, erkalama va ovutmachochlik kabi katta va kichik janrlari sog'lom avlodni voyaga etkazish va sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbek xalq maqollari, naqllari va donishmandlar hikmatlari orqali o'sib kelayotgan yosh avlod ezgulikka (odamning eng baxtli vaqti – boshqalarga ezgulik qilgan onlaridir); poklikka (dili pokning ko'ngli shod, ishida kushod); odoblilikka (insonning odobga ega bo'lishi oltinga ega bo'lishidan ko'ra xayrlidir); to'g'rilikka (to'g'rilik–odamdan bergan so'zida turishni talab qiladi); mehnatsevarlikka (mehnat insonni uch balodan saqlaydi; yurak siqilishidan, ahloqiy buzilishidan, muhtojlikdan); odamiylikka (odam bo'lish – oson, odamiy bo'lish – qiyin); yaxshilikka (yaxshilik nur keltirar, yomonlik-zulmat); do'stlikka (vafoli do'st – izga solar, ig'vogar do'st poydan olar); saxiylikka (saxiyning o'ng qo'li berar, chap qo'li bilmas); kamtarinlikka (kamtarlik–katta davlat, kamtarlik ko'kka ko'tarar, manmanlik erga kitarar); rostgo'ylikka (rost gap aytgan yengilmas, yolg'onchining yonidan o'tma, rostgo'yning yonidan ketma); sabrlilikka (sabr – achchiq, mevasi- shirin); ota-onani hurmat qilishga (ota-onang davlating, farzandlaring – savlating) va ustozni ulug'lashga o'rgatiladi". To'g'rilik, halolilik, odoblilik, ezgulik, insonparvarlik kabi fazilatlariga ega yoshlarning ma'naviy qiyofasidir. Ma'naviy sog'lom shaxs insonlarga xayrihoh bo'ladi, o'z turmushidan xursand va mag'rur yashaydi.

O'zbek xalqining boy madaniy merosida muhim o'rin egallagan, tarixantarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarni soshlar sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganish muhim o'rin egallaydi. SHarq xalqlarining boy xalq pedagogikasi, yozma adabiyoti, diniy manbalari, buyuk mutafakkirlari olg'a surgan g'oyalari, asrlar davomida sayqallanib kelgan ahloqiy fazilatlarini yoshlarga g'amxo'rlik qilish, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat, saxiylik kabi fazilatlarini shakllantirish omili bo'lib xizmat qiladi

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan mashg'ulotlar jarayonida rivoyatlardan foydalanib, maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalashga qaratilgan sa'y-harakat o'zining ko'zlangan natijasini berish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning hatti-harakatlarida Shunga doir malaka va odatlar shakllantirilishiga ham e'tibor berish zarur. Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "Maktabgacha

yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalash mazmunining asosiy yo'nalishlari" deb nomlanib, unda:

- maktabgacha yoshdagi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlar jarayonida rivoyat va dostonlardan foydalanishning amaliyotdagi ahvoli;
- xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning imkoniyatlari;
- xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning imkoniyatlari kabi masalalar ilmiy asosda tahlil etilib, keng yoritildi.

Mazkur bob yuzasidan tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar, ilmiy tahlillar orqali quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin bo'ladi:

1. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi yaratilgan sharoit va modiy-texnik bazaning etarligi zaruriy omillardan sanaladi.

2. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli foydalanishni kafolotlovchi omillardan biri – bu ta'lim jarayonida mashg'ulotlarni tashkil etishga nisbatan ijodiy, noan'anaiy yondoShuvni qaror toptirish sanaladi.

3. Mashg'ulotlar jarayonida ham maktabgacha yoshdagi bolalarni rivoyat va dostonlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Tarbiya jarayoni qanchalik murakkab va serqirra bo'lmasin, uni ma'lum maqsad sari uzluksiz olib borilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bunda tarbiyachi bilan bolalar faoliyatiga, Shuningdek bola yashayotgan muhit – oilaga, bolaning bo'sh vakti qanday tashkil kilinishiga, ta'sir vositalari mazmunining serqirraligiga e'tibor berilishi mumkin.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik, do'stlik, ma'suliyatlilik kabi ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish tarbiyachining bevosita pedagogik faoliyatidan boshlanishini inobatga olib, tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-ahloqiy

fazilatlar ni tarbiyalash borasida yonaltiruvchi maqsadlar belgilanadi. Bolalarda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini tarbiyalashni ustun maqsad qilib belgilash bilan birga uni amalga oshirish uchun darsda qanday vazifalarni hal etish yordam berishligini ham aniqlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7- avgustda ma'qullangan. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017- 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-

sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017 y. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 3 oktyabr.

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.

8.O'zbekiston respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullangan. №O'RQ-595 (18.06.2020 y. kundan kuchga kiradi).

Internet saytlari.

- <https://mdo.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi).
- <https://lex.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi).
- <https://president.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti veb sayti).
- <http://ziyonet.uz/> (Ta'lim portali).
- <https://adu.uz/> (Andijon Davlat Universiteti veb sayti).
- <https://www.andijonvmtb.uz/> (Andijon Viloyati Maktabgacha Ta'lim Boshqarmasi veb sayti).
- <https://kun.uz/>

INNOVATIVE
ACADEMY